

**NAXSHAB TARIXIGA OID MANBALAR KLAFIKATSIYASI DOIRASIDA AYRIM
QARASHLAR**

Xamidullo Baratov

Shahrisabz davlat pedagogika instituti

Ijtimoiy fanlar kafedrasida o'qituvchisi

hamidullobaratov252@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada ilk O'rta asrda Janubiy Sug'd tarkibiga kiruvchi Naxshab hokimligi tarixiga oid Sug'diy, xitoy qadimgi yunon, rim, arman, arab-fors tilidagi manbalari tasnifi yoritildi. Maqolada manba guruhlariga bo'linib tasnif etilib ma'lumotlarni arxeologik izlanishlar orqali topilgan manbalar bilan qiyosiy tahlili yoritildi.

Kalit so'zlar: Naxshab, Avesto, Mug' tog'i hujjatlari, Bey-shu yilnomasi.

Аннотация: В раннем средневековье особое внимание уделялось классификации согдийских, китайских, древнегреческих, римских, армянских, арабо-персидских источников, связанных с историей Нахласского наместничества, входившего в состав Южной Согдийской области. В статье источники были классифицированы по группам и выделен сравнительный анализ данных с источниками, найденными в результате археологических исследований.

Ключевые слова: Нахашба, Авеста, документы горы Муг, ежегодник Бэй-шу.

**SOME CONSIDERATIONS WITHIN THE CLASSIFICATION OF SOURCES ON THE
HISTORY OF NAXHAB**

Khamidullo Baratov

Shahrisabz State Pedagogical Institute

Department of Social Sciences teacher

hamidullobaratov252@gmail.com

Annotation: In the early Middle Ages, the classification of Sugdian, Chinese, ancient Greek, Roman, Armenian, Arabic-Persian sources related to the history of the Nakhlab governorship, which was part of Southern Sugd, was highlighted. In the article, the sources were classified into groups and a comparative analysis of the data with the sources found through archaeological research was highlighted.

Key words: Nakhhab, Avesta, documents of Mugh mountain, Bei-shu yearbook.

Kirish. Jamiyatda tarix va unga yordamchi fanlar rolining o'sib borishi natijasida bu fanlarning oldida turgan dolzarb muammolar ko'lamiga tobora yaqqol namoyon bo'lib bormoqda.

O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimovning bir guruh tarixchi olimlar bilan suhbatida chog'ida – "Modomiki o'z tarixini bilgan, undan ruhiy quvvat oladigan xalqni yengib bo'lmas ekan, biz haqqoniy tariximizni tiklashimiz, xalqimizni, millatimizni ana shu tarix bilan qurollantirishimiz zarur" [1. 24-25 b]- degan so'zlari tarixchi olimlar zimmasiga haqqoniy tarixni yaratishdek mashaqqatli hamda sharaflil vazifani yukladi. Mustaqillik yillarida o'z tariximizni yozish maqsadida ko'plab tarixshunoslik asarlari yaratildi. O'zbekiston hududida

yashagan xalqlarning, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy, tarixiy-geografik jarayonlarini qamrab olgan tadqiqotlar yuzaga keldi. Bunday tadqiqotlar jumlasiga Sug'd konfederatsiyasi tarixiga doir tadqiqotlarni misol tariqasida ko'rsatish mumkin. O'rta Osiyo, xususan, O'zbekiston xalqlari tarixida qadimiy va ilk o'rta asr Sug'd konfederatsiyasining o'rni va ahamiyatini belgilovchi ma'lumotlar mavjud. Aynan Sug'd konfederatsiyasiga kiruvchi Naxshab hokimligi haqida ham uning ilk o'rta asrlar O'zbek davlatchiligida o'rni masalasi bo'yicha oz bo'lsada tadqiqotlar yaratildi.

Adabiyotlar tahlili. Naxshabning mintaqadagi o'rni, tarixiy geografiyasi va siyosiy hayoti masalalarini alohida tadqiq etish fan oldidagi dolzarb vazifalardan hisoblanib ushbu doirada ish olib borishda manbalarni o'rganish asosiy o'rin tutadi. Naxshabning siyosiy tarixiga oid birinchi ilmiy asar fransuz tadqiqotchisi Allot de-la Fyuga tegishlidir. Allot de-la Fyuga XX asrning birinchi choragida Markaziy Osiyodan topilgan ko'p miqdordagi ilk bosqich sug'dcha yozuvli kumush tangalarni tasnif va talqin qilish bilan shug'ullangan. O'tgan asr o'rtalaridan buyon chop etib kelingan akademik nashrlarda, jumladan, 1950-yilda nashr etilgan "O'zbekiston xalqlarining tarixi" nomli tadqiqotda biz o'rganayotgan ilk o'rta asrlar Naxshab tarixiga oid yozma manbalar tahlili asosida bir qator qimmatli ma'lumotlar keltirilgan [2. 474 b]. 1970-yilda chop etilgan "Sug'd tarixidan lavhalar" kitobida O.I.Smironova Sug'dning ilk o'rta asrlardagi ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy hamda hukmdorliklarning ma'muriy tuzulishini sug'd, arab, fors va xitoy tilli manbalar asosida tahlil qildi [3. 288 b]. R.X. Sulaymonovning 2000-yilda nashr etilgan "Qadimgi Naxshab" nomli monografiyasi qadimgi Sug'dning madaniyati va tarixiga bag'ishlandi [4. 342 b]. Asarning I bobida yozma manbalar va arxeologik materiallar asosida o'lkada shaharsozlik madaniyati, qasrlar qurilishi misolida VII-VIII asrlarda mayda hokimliklarning mustaqillikka intilishi va markaziy hokimiyat ta'sirining yo'qolib borishi, nihoyat, bu holat xoqonlik hokimiyatining inqiroziy holatga tushishi arafasida o'z yuqori cho'qqisiga yetganligi tahlil etilgan [4. 62-72 b].

Metodologiya. Mazkur tadqiqotda Naxshab tarixiga oid manbalarni o'rganishda tizimlashtirish va xolislik tamoyillaridan foydalanilib, manbalarni tarixiy-qiyosiy va davrlashtirish, tarixiylik metodlari orqali tahlil qilindi.

Dolzarbli. Ilk O'rta asrlarda Janubiy Sug'd mulki Naxshab tarixiga oid eng qadimgi manba "Avesto" bo'lib, mil.avv. I ming yillikka taalluqlidir. Naxshab tarixi haqida ma'lumot beruvchi yunon, xitoy, qadimgi fors va arab manbalarida ham geografik, iqtisodiy, siyosiy ma'lumotlar aks etgan bo'lib, ularni tarixiy manba sifatida tadqiq etish bugungi kun muhim vazifasiga aylangan. Shu sababli Ilk o'rta asrlarda Naxshab tarixiga oid manbalarni guruhlariga bo'lib o'rganish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

1-guruh Mahalliy manbalar. Naxshabning nomi haqidagi eng qadimgi ma'lumot mil. avv. IV asrga oid Afg'onistondan topilgan oromiy hujjatlarida Nikshapaya (Nikshapa) shaklida uchraydi.

Sug'd konfederatsiyasi tarixiga doir birlamchi manbalardan biri – Mug' tog'i sug'diy hujjatlari hisoblanadi. Ularda Sug'd konfederatsiyasi tarkibiga kiruvchi hukmdorliklar (Maymurg', Kesh, Naxshab, Ishtixon, Panch) o'rtasidagi ichki munosabatlar hamda ushbu hukmdorliklar tarkibidagi alohida mulklarning boshqaruvdagi o'rni masalasi to'g'risida, konfederatsiyalashuvning bosh sharti hisoblangan tashqi dushman hujumiga qarshi birgalikda kurashish bilan bog'liq jarayonlarda keltirilgan. Ushbu manbalar asosida Naxshab hukmdorligining konfederatsiya tarkibidagi mulklar va markaz Samarqand bilan aloqasi haqida ma'lumotlarga ega bo'lamiz.

2-guruh Qadimgi yunon, rim, arman tarixchi va geograflari asarlari. Yunon muarrixlari Aleksandr Makedonskiyning Markaziy Osiyoga qilgan yurishi haqida hikoya qilganlarida, So'g'd va uning janglar kechgan viloyatlari haqida ham so'zlab o'tadilar. Masalan Arrian "Bessga Aleksandr yaqinlab qolganini aytganlariga, u Oksdan (Amudaryo) suzib o'tadi, qayiqlarni esa yondirib, So'g'd yeriga, Navtoqqa ketadi" [5. 92 b], deydi. "O'zbekiston tarixi manbalari" kitobini tuzgan prof. B.V.Lunin "Navtoq"qa: "hozirgi vaqtda Navtaka (Nautaki) xarobasini Markaziy Osiyoning eng katta shaharlaridan biri — Yerqo'rg'on deb qarashga barcha asoslar yetarli, chunki uning o'rnida antik davr Sug'd shahriga xos bo'lgan madaniy qatlamlar saqlanib qolgan" [6. 92 b], degan izohni beradi.

Arman tarixchi va geograflari Sebeos, Ananiya Shirakatsi, Moisey Kalankavatsi, Moisey Xorenatsi kabi olimlarning asarlarida ham Naxshab hududi va unga kiruvchi mulkliklar tarixiy geografiyasi va toponomikasi haqida muhim ma'lumotlar qoldirilgan. Masalan 580 yillar oxirida Hirot tevaragida Turk xoqonini yenggan Sosoniylar qo'shinining Vexrod (Amudaryo)dan kechib "Kazbion" deb ataladigan mavzegacha yetib borgani [7] to'g'risida asarlarda eslatib o'tiladi va bu ma'lumotlar ko'plab muhokamalarga sabab bo'layotgan "Kazbion" hozirgi qaysi hududlarga to'g'ri kelishi masalasini birmuncha oydinlashtirdi.

3-guruh Xitoy manbalari. Sug'd tarixiga oid manbalar haqida to'xtalar ekanmiz Xitoy manbalari tasnifini ham kiritib o'tish joiz albatta. Aynan Naxshab tarixiga oid siyosiy-ijtimoiy madaniy ma'lumotlar Xitoy yilnomalarida o'z aksini topgan. Xususan, Xitoy yilnomalarida Sug'd "Su-li", Samarqand esa "Kan" deb nomlanadi [8]. Xitoy ma'muriy terminologiyasiga qaraganda Kesh va Buxoro ham Su-liga qarashli bo'lgan. "Bey-shi" ("Shimoliy sulolalar tixi"), "Suy-shu" ("Suy sulolasi tarixi"), "Tan-shu" ("Tan sulolasi tarixi") kabi yilnomalar va Syuan Szu (629-645), Xoy Chao singari sayyohlarining esdaliklarida Sug'd, xususan, Naxshab tarixiga oid ma'lumotlar uchraydi [8. 112-114, 126-131, 135-136, 260-267, 285-288, 310-318, 321-325 b]. VIII asr boshlarida Sug'dga Qashqadaryo vohasi ham kirganligi Qutayba bilan G'urak o'rtasida tuzilgan 712-yilgi Samarqand shartnomasida aniq belgilangan. Janubiy Sug'd ya'ni Qashqadaryo vodiysi tarkibiga o'z navbatida Kesh va Naxshab [9] hukmdorliklari kirgan. Naxshab hukmdori esa Kesh podshosiga bo'ysingan [10] degan fikrlar ham mavjud. Xitoy manbalarida keltirilgan ma'lumotlarga e'tibor qilinsa, Naxshabning Kesh tarkibida bo'lganligini anglashiladi. Ammo Naxshab hukmdorlari qadimdan o'z nomlaridan tanga-pul zarb etganliklari ma'lum. Xitoylik mualliflar Naxshabning ma'muriy chegaralarini keltirishda xatolikka yo'l qo'yishgan. Ularda Naxshab Eron bilan chegaradosh deb keltiriladi. Balki, bu o'rinda yilnoma mualliflari bir muddat Sug'dga Amudaryo orqali chegardosh bo'lgan Sosoniylar davlatini nazarda tutishgandir. Xitoy yilnomalarida Naxshab hukmdor xonadonlarini chjaou-lar deb ataydi.

Arab geograflari va tarixchilari asarlari. Musulmon yozma manbalarida Janubiy Sug'd shaharlari Kesh va Naxshabning nomlari dastavval VII asr oxiri VIII asr boshlarida qo'llanilgan.

Arab geograflari ichida eng dastlabki ma'lumotlarni qoldirgan ibn Xordadbeh [11] Nasaf (Naxshab)ni Samarqandga bo'ysunuvchi shaharlar jumlasiga kiritib, Nasafdan xalifalik xazinasiga 90 ming dirham xiroj tushganligini qayd etgan. Ushbu ma'lumot asosida Naxshabning siyosiy mustaqillik haqida fikrlarimizni dalillash imkonini beradi.

Tabariyning "Tarixi-at-Tabariy" kitobida Movarounnahr, xususan, Naxshab tarixiga oid, VIII-XI asrlardagi tarixiy voqealar xronologik tartibda bayon etishi bilan katta ahamiyat kasb etadi. Tojikistonda Nizomulmulukning "Siyosatnoma"si, Abu Rayhon Beruniyning "Osor ul-boqiya"

asari chop etildi. Bu kitoblarda Qashqa vohasida VIII asrlarda kechgan arablar istilosi, Muqanna boshliq xalq isyoni haqida qiziqarli ma'lumotlar mavjuddir.

Arab muallifi Al-Muqaddasiy, Jayhoniy ma'lumotlariga asoslanib, ilk o'rta asrlarda Sug'dga Kesh va Nasaf (Naxshab) yerlari kirgan deb ko'rsatib o'tadi va bu mulklarning alohida ekanligiga ham urg'u beradi.

Nasafdagi hunarmandchilik turlari to'g'risidagi ma'lumotlar o'rta asr manbalarida ham uchraydi. Abulkarim Sam'oni Nasafda Zargarlar (as-Sog'a) ko'chasini tilga olgan (Kamaliddinov, 1993, s.102). Shulluktepa rabodidan qazishma davridan topilgan lojuvard ko'zli mis uzukni mana shu Zargarlar ko'chasida yashagan zargar yasagan bo'lsa ham ajabmas.

MUHOKAMA. Mavjud Sug'd tarixiga oid manbalarni tasniflab, ularni o'rganishda quyidagi jihatlar alohida e'tibor qaratish joizligini ta'kidlab o'tish lozimdir:

Xitoy tilidagi manbalarda Naxshabni Kesh tarkibidagi mulk sifatida qaralishi, Sug'd (Zarafshon–Qashqadaryo havzalari)ning o'z hududlari bilan sug'diy diaspora tarqalgan hududlar (O'rta Sirdaryo havzalari, Yettisuv, Sharqiy Turkiston, Shimoli-G'arbiy Xitoy)ga doir ma'lumotlar ba'zan qo'shib yuborilganligi ushbu davr xitoy manbalarini yanada chuqur tahlil etishni taqozo etadi.

Janubiy Sug'd (Naxshab) tarixiga oid dastlabki ma'lumotlar "Avesto"dan boshlab, mil.avv. I ming yillikka taalluqli yunon, xitoy va qadimgi fors manbalarida aks etgan. Naxshabning konfederatsiya tarkibidagi maqomi masalasini o'rganishda xitoy, yunon, lotin, qadimgi turk, baqtriy, suryoniy, arman, turkiy, fors va arab kabi ko'plab tillardagi tarixiy ma'lumotlarga murojaat etish lozim bo'ladi [8]. Shu tarzdagi keng qamrovli qiyosiy tahlil etish nafaqat Naxshab balki umuman Sug'd tarixini o'rganish uchun ham muhim hisoblanadi.

Sug'd tarixiga oid manbalarda konfederatsiyada savdo va savdo yo'llari yaxshi rivojlanganligi ta'kidlab o'tiladi. Naxshabning ham ushbu davrda muhim savdo yo'nalishida joylashganligini (Temir darvoza) hisobga olib, hunarmandchilik va savdo qay tartibda rivoj topganini yozma va arxeologik manbalarni qiyosiy tahlil etish orqali tadqiq qilish zarurdir.

Xulosa va takliflar : Xullas ilk o'rta asrlar Naxshab tarixiga oid ma'lumotlar yuqorida aytib o'tganimizdek xitoy, sug'diy va arab-fors, yunon, arman, tilli manbalarda uchraydi. Ammo ushbu manbalarda ayrim uzulishlar mavjud bo'lib ularni tasniflash va tahlil etishda arxeologik ma'lumotlardan ham foydalanish zarurati mavjud. Shunga qaramay ular asosida Naxshabning Sug'd konfederatsiyasidagi maqomi bo'yicha bir qator muammolarga aniqlik kiritishda foydalanish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. - Toshkent: Sharq, 1998.
2. O'zbekiston xalqlari tarixi. (S.P.Tolstov, V.Yu.Zohidov va boshqalar tahririda). T. I. - Toshkent: O'zbekiston SSR Fanlar akademiyasi nashriyoti. 1950.
3. Smirnova O.I. Sug'd tarixidan ocherklar. -M.: Nauka, 1970.
4. Sulaymonov R.X. Qadimgi Naxshab. –Samarqand-Toshkent: Muxlis. 2000.
5. "O'zbekiston tarixi manbalarda"
6. Trever K.V. 4—7-asrlarga oid arman manbalariga ko'ra kushonlar, xionitlar va eftalitlar. (O'rta Osiyo xalqlari tarixi haqida) // SA. XXI. 1954 yil.

7. Bichurin N. Ya. (Iakinf). O`rta Osiyoda qadimda yashagan xalqlar haqida ma`lumotlar to`plami. 3 jildda. - M. - L.: Ed. SSSR Fanlar akademiyasi, 1950.
8. Bernshtam A. N. Turklar va Markaziy Osiyo Xoy Chao tavsifida (726) // VDI. - M.: 1952.
Tugusheva L. Yu. Syuan Zang tarjimai holining uyg`urcha varianti. – M.: Nauka, 1991;
9. Ekrem E. Hsüan-Tsang Seyahetnamesi'ne gore Turkiston. Basılmamış doktora tezi. Hacettepe universiteti, Sotsial Bilimler Enstitüsü. - Anqara, 2003.
10. Bichurin N.Ya. (Jakinf). Ma'lumotlar to'plami Xordodbeh Ibn. Kitob al-masaliqva-l-mamalik (Yo'llar va mamlakatlar kitobi) / Noila Velixonovanning arabcha sharhlar, tadqiqotlar, ko'rsatkichlar va xaritalardan tarjimasi. – Boku: Elm, 1986 yil.
11. Qadimda Markaziy Osiyoda yashagan xalqlar haqida. 3 jildda. - M. - L.: SSSR Fanlar akademiyasining nashriyoti, 1950-1953